

Professor Konradning seminari

Kecha Germaniyaning Martin Lyuter nomidagi Galle-Vittenberg universiteti (QS da kuchli 600 talikda) professori Kristofer Konrad institutga rasmiy tashrif buyurdi. Dastlab xalqaro hamkorlik prorektori A.Salohiddinov mehmonlar uchun TIQXMMI va uning faoliyati xususida taqdimot qilib berdi. Prof. Konrad "Markaziy Osiyoda suvdan samarali foydalanish monitoringi (WebGIS)" mavzusida seminar o'tib berdi. U Germaniyaning tashqi ishlar vazirligi tomonidan moliyalashtirgan CAWa loyihasi ham batafsil ma'lumot berdi. Mavzu ishtirokchilarning aksariyaida, professor-o'qituvchi va talabalarda qiziqish uyg'otgani bois munozarali bahs ko'rinishda olib borildi. So'ngra prof. Konrad institut rektori prof. O'.Umurzakov bilan o'zaro uchrashuvda universitetlararo keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish va istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha maslahatlashib olishdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov